



FOLKLOR MUSIQASI ASOSIDA BOLALARNI KOGNITIV MUSIQIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Muallif: Eshboboyeva Diyora A'zam qizi ¹

Affilyatsiya: “Musiqqa ta'limi” yo'nalishi 2-kurs 201-guruh talabasi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14466083>

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashda folklor musiqasining ahamiyati, ularning kognitiv musiqiy qobiliyatini shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: folklor, kognitiv, xalq og'zaki ijodi, integratsiya, maktabgacha ta'lim.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 23-sentabr 2020 yildagi O'RQ-637-son, 2- bo'lim, 8-moddasida shunday deyiladi: “Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu qonun, shuningdek “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.”

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” Qonunida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, bolalarni har tomonlama kamol topdirish, ularni ma'naviy ongini yuksaltirish, badiiy, estetik, musiqiy tarbiya berishda ularning qiziqish, imkoniyat va qobiliyatlarni hisobga olgan holda musiqqa mashg'ulotlarni tashkillashtirish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar folklorining ahamiyati beqiyosdir. Folklor nafaqat madaniy meros, balki bolalarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan boy manbaadir.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida bolaning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadi. Bolalar folkloridagi ertaklar, qo'shiqlar, topishmoqlar va o'yinlar orqali axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari singdiriladi. Ushbu elementlar bolaning kognitiv musiqiy qobiliyatini shakllantirish, muloqot madaniyatini va jamoada o'z o'rnini topishga yordam beradi. Bolalar folklori orqali ularga ezgulik, mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar singdiriladi. Shu sababli,

maktabgacha ta'limda bolalar folklorini qo'llashning dolzarbligi va uni o'quv jarayoniga integratsiya qilishning usullari bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, folklor musiqasi asosida bolalarni kognitiv musiqiy qobiliyatini shakllantirish, uning pedagogik imkoniyatlari va amaliyotdagi qo'llanilishi muhim masaladir.

Xalq tomonidan yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar xalq og'zaki ijodi yoki folklor (ingl. "folk" - xalq, "loro"- donolik, ya'ni xalq donoligi, donishmandligi) deb yuritiladi. Folklorga quyidagi janrlar kiradi: qo'shiqlar, maqol, matal, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, askiya, doston, tez aytish, masal, alia, yor-yorlar, kelin salomlar, topishmoq, naqlar, hikmatlar, pandnomalar, aforizmlar va boshqalar.

Xalq og'zaki ijodining yuqorida sanab o'tilgan barcha janrlarida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'llari, tarbiya usullari, mehr, muhabbat, saxiylik, olijanoblik, qadr, vafo, sadoqat, yaxshilik, oqibatlilik, mehnatsevarlik, kasbhunarga muhabbat, halollik, adolat, insof, andishalilik, insonparvarlik, kabi xislatlar ulug'lanadi, yomonlik, bevafoqlik, baxillik, xasislik, qo'rqqoqlik, nomussizlik, manmanlik, kaltabinlik, xushomadgo'ylik, andishasizlik, ochko'zlik, mas'uliyatsizlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi. Shu o'rinda folklor namunalari odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasida o'ta hayotiy, xalqchil va ibratlilikini, shu bois uning umumbashariy ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlashimiz joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Nosirova Hurmatoy Namozboy qizi, Eurasian journal of technology and innovation // Toshkent -2015

M.J.Mutalipova "Xalq pedagogikasi" Toshkent-2015

N.Rejametova "Maktabgacha ta'limda nusiqa o'qitish metodikasi" "Book many print" nashriyoti Toshkent-2020

M. Mo'miova "Xalq ta'limi" jurnal i// 3-maxsus son Toshkent-2021

